

ISSN: 2687-0142

ИНТЕРНАУКА

НАУЧНЫЙ
ЖУРНАЛ

26(202)



internauka.org

г. Москва

Қазақ тілінде мақалалар	85
Филология	85
КРИТИКАЛЫҚ ОЙЛАУДЫ ХАТ АРҚЫЛЫ ОҚЫТУМЕН ҚАЛЫПТАСТЫРУДЫҢ ТИІМДІ ЖОЛДАРЫ. (ДЕРЕКТІ ФИЛЬМДЕРМЕН МҰҚАҒАЛИ МАҚАТАВТЫ ТАНУ) Түлекова Гүлжан Хажмуратовна Абильханова Мадина Нурлановна	85
O'zbek tilida maqolalar	89
Tibbiyot va farmakologiya	89
ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР: РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ Муяссарова Дилнора Абдурауфовна Алимова Динора Камолиддин қызы	89
ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ: ШАКЛ, ВОСИТА, УСУЛ Тошкенбоева Чарос Баходир қызы Абдикодирова Рухсора Олим қызы	91
Pedagogika	93
O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHDA MEDIA TA'LIMNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich	93
Filologiya	95
CHET TILINI O'QITISHDA YANGI SO'ZLARNING AHAMIYATI Maxammatqulova Iroda Nodirovna	95

PEDAGOGIKA

O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGAТИSHDA MEDIA TA'LIMNING SHAKL,
METOD VA VOSITALARI

Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich

*Namangan davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi,
O'zbekiston, Namangan*

ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim jarayonida qo'llinildigan media ta'limning shakl, metod va vositalari, ularning imkoniyatlari va haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: media ta'lim, masofaviy o'qitish, kontekst tahlil, imitatsiya, ilmiy izlanish, muammoga yo'naltirilgan ta'lim, masofaviy ta'lim.

Biz shundayin rivojlanish cho'qqisiga chiqqan davrda yashayapmizki, vaqt va zamonda yuz berayotgan voqealarни to'liq anglab yetishga ulgurmayabmiz ham. Hozirgi vaqtida hech bir sohada aytilmagan fikr, yaratilmagan g'oya qolmadi. Istagan mavzuda ma'lumot olish uchun internetga kirsangiz kifoya. Biroq, inson ma'naviyati, ijodkorligini hech narsa bilan taqqlaslash mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-oktabrdagi “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida “Elektron axborot ta’lim veb-resurslarini yaratish va ularga Internet jahon axborot tarmog‘i orqali ommaviy kirish imkoniyatini taqdim qilish” ham alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limgan tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limgan tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtida ta'larning quyidagi shakllari ajratilib ko'rsatiladi: individual, individual-guruqli, sinf-dars, leksiya-seminar va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktabdan tashqari. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariiga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

- 1) individual;
 - 2) sind-dars;
 - 3) ma'ruza-seminar.

Qadim zamонlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'limming individual shakli hisoblanadi. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelningan [1Ошибкa! Источник ссылки не найден., 105-b].

Ayni paytda o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rnatishda quyidagi shakllardan foydalilanidi: kompyuterlashtirilgan o'qitish texnologiyasi, trening mashg'uloti, mustaqil ta'lim, masofaviy ta'lim. Ushbu shakllarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Ilmiy texnik taraqqiyotning xususiyatlari mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish va uzluksiz, ijodiy bilimlarni egallashni talab qiladi. Bunday ta'lif xizmatlarini ko'rsatish istiqbolli, zamonaviy o'quv tizimlari uchun qo'yiladigan talablardan birdir. YUNESKO «Ta'lifni axborotlash instituti» mutaxassislarining fikricha, ta'lif jarayonini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri dunyo aholisiga axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda, masofaviy o'qitish va mustaqil o'qish imkoniyatlaridan keng foydalanish ta'minotini yaratishdir.

Masofaviy o'qitish - bu masofadan turib o'qitishdir, ya'ni o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashshtirish texnologiyalari asosida olib boriladi [2,173].

Masofaviy ta'limning tarkibiy qismlariga quyidagilari kiradi:

O'qituvchi-o'quvchi-kommunikatsiya. Masofaviy ta'lif vositasida o'quvchi uchun qulay bo'lgan joyda individual jadval asosida maxsus imkoniyatlar, telefon, elektron aloqa va boshqa ta'lif vositalari yordamida bir maqsadga qaratilgan nazorat qilish mumkin bo'lgan ta'lif jarayoni tashkil etiladi. Masofaviy ta'lifda ma'lum maqsad asosida ta'lif subyekti va obyekting ta'lif vositalari yordamidagi o'zaro ta'siri amalga oshadi. Ma'lumot jarayoni o'ziga xos pedagogik tizim elementlarini o'z ichiga oladi. Bular: ta'lif maqsadi, ta'lif mazmuni, ta'lif metodlari va vositalari, ta'lifning tashkiliy shakllari, nazorat qilish, o'quv, moddiy, moli-yaviy-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslar, marketing kabilar.

Masofaviy ta'lim tizimi insonparvarlik prinsipiiga asoslanadi. Ya'ni hech kim kambag'allik, geografik muammolar, ijtimoiy himoyalanganlik va boshqa sabablar tufayli bilim olish huquqidan mahrum bo'lmasligi lozim. Masofaviy o'qitishda o'qituvchi talabaga o'quv materialini «Internet» tizimi orqali yuboriladi. Ushbu kurs bo'yicha ta'lim olishni istagan o'quvchilar veb-saytga murojaat qilib, nazariy bilimlami oladilar, amaliy topshiriqlami bajaradilar va o'qituvchiga javobni elektron pochta (e-mail) orqali jo'natadilar. O'qituvchi o'quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqni tekshirib, javobni yana

elektron pochta orqali o'quvchiga yuboradi. Zarur bo'lsa, kerakli ko'sratmalar beradi. O'quv jarayonida o'quvchi darslikdagi, elektron kutubxona va elektron darsliklardan, vidiokonferensiyalardan foydalanadi. [3, 41].

Kompyuterlashtirilgan o'qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foya-la-nishga asoslangan o'qitishdir. O'qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir.

Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televiedenie, video va boshqalar) ishlatalishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o'qitish g'oyalarni rivojlantiradi, zamonaliv kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'qitishning mutlaqo yangi, hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikatsion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamон ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi. Ilmiytexnik taraqqiyot ilmiy-texnik axborotning ko'chkisimon o'sishi bilan belgilanadi. Talabalaming individual qobiliyatlarini hisobga olib, imkonni boricha eng ko'p hajmda axborotni o'zlashtirish faqat kompyuterlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni o'qitishning kompyuter texnologiyasi asosida o'quv jarayonini jadallashtirish va samaradorligini maksimal darajada oshirishga erishish mumkin [2, 92].

B.Namazov, M.Fayziyevava G'.Djalilovlar hammulliflida yaratilgan "Media va axborot savodxonligi" nomli pedagoglar uchun metodik qo'llanmada shunday deyiladi.

Ta'lism jarayonlariga media va axborot savodxonligini integratsiya qilishda quyidagi pedagogik metodlardan foydalanish mumkin:

Muammoga yo'naltirilgan ta'lism. Muammoga yo'naltirilgan ta'lism – bu ta'lism oluvchilarda bir tomonidan sohalararo bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradigan, ikkinchi tomonidan esa tanqidiy tafakkur va muammolarni yechishni o'rgatadigan o'qitish jarayonini tashkil etuvchi tizimdir.

Matn tahlili. Ta'lism oluvchilar turli mediajanrlar kodi va ramzlarini identifikatsiya qilib, matnni tahlil qilishni o'rganadilar. Bunday semiotik tahlil asosiy konsepsiyalarni chuqurroq o'zlashtirishga qaratilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. B.X.Kodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, - 416 bet. 105-b.
2. N.X.Avliyakulov, N.N.Musaeva. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik Toshkent : Cho'lpon NMIU, 2012. -208 b. 176-b.
3. T.G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaliv pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. - T.: Tafakkur, 2011 . - 160 bet. – 41-b.
4. B.Namazov, M.Fayziyevava G'.Djalilov. Media va axborot savodxonligi". Pedagoglar uchun metodik qo'llanma.T.: Baktria press, 2018. - 160 bet. 22-b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-oktabrdagi "Internet jahon axborot tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori ilovasi 2-band. Toshkent-2019.

Misol uchun, ta'lism oluvchilar ma'lum bir auditoriyaga ta'sir etuvchi xabarlar yaratish uchun til kodlari va shartli belgilardan foydalanishni o'rganadilar. Ta'lism oluvchilar istalgan media matnning "texnik", "belgili" va "hikoya qiluvchi" (syujetli) kodini aniqlashni o'rganishadi. Matn tahlilidan ta'lism usullaridan biri sifatida emas, balki kontekst ma'nosini tahlil etishda foydalanish lozim.

Imitatсиya. Imitatsiya ko'p hollarda kino olish va media o'qitish dasturi bloklarida strategiya sifatida flaniladi. Pedagoglar imitatсиyadan ta'lism oluvchi-larga medianio'rganish "qanday ko'rinishda" bo'lishini namoyish etish uchun foydalanadilar. Boshqacha qilib aytganda, pedagog sindagi o'quvchini rolini o'ynaydi, ta'lism oluvchilar esa, hech bo'limganda vazifalarni bajarayotganda, o'zlarini namunalni ta'lism oluvchilardek tutadilar. Ushbu strategiya pedagogik jarayon sifatida ta'lism oluvchilar bilan muhokama qilinadi.

Imitatсиyadan turlicha foydalanish mumkin:

- ta'lismoluvchilar yoshlar uchun televizion ko'rsatuv ustida ishlayotgan hujjatli film ijodiy guruhi rolini o'ynashadi;
- ta'lism oluvchilar o'zlarini mediani o'qitishni o'rganayotgan radio-jurnalistlar yoki Internet-nashrlarning jurnalistlari qilib ko'rsatadilar. Ularga media pedagogidan intervyu olish va intervyudan keyin tayyorlangan podkastni tahrirlash vazifasi yuklatiladi;
- ta'lism oluvchilar o'zlarini bo'lajak o'quvchilar uchun universitet hayoti to'g'risida qisqa reklama videosi tasvirga olayotgan marketing guruhi xodimlari qilib ko'rsatadilar [4, 22].

Tahlil etilgan adabiyotlar hamda to'plangan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki media ta'lism asosida o'quvchilarni kreativ fikrashga o'rgatish bugungi kunni muhim vazifasidir. Ayniqsa, pandemiya sharoitida masofaviy ta'lismni joriy etishda media ta'lism metodlari qo'l keladi.

Shuning uchun maktabgacha ta'lism, umumta'lism, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, Oliy ta'lism muassasalarini tarbiyalanuvchi, o'quvchi va talabalari mediasavodxonlik darajasini aniqlovchi sotsiologik so'rovnomalari o'tkazishni tavsiya qilamiz.